

QORAQALPOG‘ISTON IQLIM SHAROITIDA YETISHTIRILGAN TUT BARGINING IPAK QURTI HAYOTCHANLIGIGA TA’SIRI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1102>

Nargiza Berdimuratova

QAXAI magistranti

Otabek Oripov

IITI tadqiqotchisi, q.x.f.f.d. (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining quruq va keskin kontinental iqlim sharoitida yetishtirilgan tut barglarining ipak qurti hayotchanligi hamda pilla mahsuldorligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot davomida mahalliy “Ipakchi-1”, “Ipakchi-2” va xorijdan keltirilgan “Shan-Tung” zotlari biologik va xo‘jalik ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslandi. Shuningdek, harorat, havo namligi, oziqlantirish sifati va qurtxonadagi mikroiklimning ipak qurtining rivojlanishiga ta’siri baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahalliy iqlimga moslashgan zotlar yuqori hayotchanlik va pilla hosildorligini namoyon etdi.

Kalit so‘zlar: ipak qurti, tut bargi, hayotchanlik, harorat, namlik, pilla hosildorligi, ipakchanlik, biologik ko‘rsatkichlar, mikroiklim, navdorlik.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda pillachilik qishloq xo‘jaligining eksportbop va iqtisodiy jihatdan muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘ziga xos agroiklim sharoitida yuqori mahsuldor ipak qurti zotlarini parvarish qilish hamda sifatli pilla yetishtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tut ipak qurti biologik jihatdan tashqi muhit omillariga juda sezgir organizm hisoblanadi. Harorat, havo namligi, yorug‘lik, shamollatish va oziqa sifati qurtlarning o‘sishi, rivojlanishi hamda pilla o‘rash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, tut bargi tarkibidagi oziq moddalarning miqdori ipak qurti organizmida modda almashinuvi va ipak bezlari faoliyatining shakllanishida muhim omil sanaladi.

Qoraqalpog‘iston hududida yoz mavsumining quruq va issiq kelishi ayrim ipak qurti zotlarining biologik xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli mahalliy sharoitga moslashgan zotlarni aniqlash va ularning mahsuldorligini baholash ilmiy jihatdan muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: Qoraqalpog‘iston iqlimida yetishtirilgan tut barglarining mahalliy va xorijiy ipak qurti zotlari hayotchanligi hamda pilla mahsuldorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Ipakchilik” kafedrasida olib borildi. Tajribada quyidagi ipak qurti zotlari ishtirok etdi:

1-variant — “Ipakchi-1”;

2-variant — “Ipakchi-2”;

3-variant — “Shan-Tung” (Xitoydan keltirilgan qiyoslovchi zot).

Har bir variantda ipak qurti tuxumlari bir xil agrotexnik sharoitda jonlantirildi va parvarish qilindi. Tajribalar davomida quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

tuxumlarning jonlanish foizi;

qurtlarning hayotchanligi;

qurtlik davrining davomiyligi;

pillaga og‘irligi;

pilla qobig'i og'irligi;
ipakchanlik darajasi;
navli pillalar ulushi.

Shuningdek, qurtxonadagi harorat va havo namligi muntazam nazorat qilinib borildi.

Ipak qurti zotlarining biologik ko'rsatkichlari (2025-yil)

Variantlar	Qurtlik davri (sutka)	Hayotchanlik (%)	Pilla og'irligi (g)	Pilla qobig'i og'irligi (g)	Navli pilla (%)	Ipakchanlik (%)
Ipakchi-1	26	96	1,7	0,435	91	23,0
Ipakchi-2	26	96	1,7	0,415	90	22,3
Shan-Tung	25	95	1,5	0,440	94	23,3

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Ipakchi-1" zoti hayotchanlik bo'yicha eng yuqori natijani ko'rsatib, 96 % ni tashkil etdi. Ushbu variantda pilla og'irligi ham yuqori bo'lib, o'rtacha 1,7 grammga teng bo'ldi. "Shan-Tung" zoti navli pilla va ipakchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natija qayd etgan bo'lsa-da, hayotchanlik darajasi mahalliy zotlarga nisbatan pastroq bo'ldi. Bu esa xorijiy zotlarning Qoraqalpog'istonning quruq iqlimiga to'liq moslashmaganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida ipak qurtlarining rivojlanishida mikroiklim omillarining ahamiyati yaqqol kuzatildi. Ayniqsa, haroratning keskin ko'tarilishi va havo namligining pasayishi qurtlarning oziqlanish faolligi hamda hayotchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 3-yoshgacha barcha variantlarda qurtlar sog'lom rivojlandi. Biroq 4–5-yoshlarda ayrim variantlarda bakterial va zamburug' kasalliklari uchrashi qayd etildi. Bu holat, asosan, qurtxona ichidagi namlik va shamollatish rejimining buzilishi bilan bog'liq bo'ldi.

Optimal harorat va namlik saqlangan variantlarda qurtlarning pilla o'rashi faol kechdi hamda yuqori sifatli pillalar olindi. Mahalliy "Ipakchi" zotlarining yuqori hayotchanligi ularning Qoraqalpog'iston agroiklim sharoitiga moslashganligi bilan izohlanadi. Xorijdan keltirilgan "Shan-Tung" zoti esa ipakchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natija bergan bo'lsa-da, keskin kontinental iqlim ta'sirida ayrim biologik ko'rsatkichlari pasayganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari ipak qurti parvarishida sifatli tut bargi, me'yoriy harorat va optimal namlikni ta'minlash muhimligini ko'rsatdi. Qoraqalpog'iston iqlimida yetishtirilgan tut barglari ipak qurti rivojlanishi va pilla hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

mahalliy "Ipakchi-1" va "Ipakchi-2" zotlari yuqori hayotchanlikka ega;
sifatli tut bargi pilla og'irligi va ipakchanlik darajasini oshiradi;
optimal harorat va namlik ipak qurti rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi "O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2856-son qarori. - Toshkent, 2017. 1-5-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3616-son qarori. - Toshkent, 2018. 1-4-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvardagi "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4567-sonli qarori. - Toshkent, 2020. 1-5-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4817-sonli qarori. - Toshkent, 2020. 1-4-b.



5. Alimova X.A., Gulamov A.Ye., Aripdjanova D.U., Axmedov J.A. Mirovoye proizvodstvo i potrebleniye tekstilnogo syrya. // Kompozitsionnye materialy. -2013. -№4. -S. 71-74.
6. Valiyev G.N., Nasirillayev U.N., Lejenko S.S., Kurbanov R.K., Axunbabayev O.A., Raximxodjayev G.A., Mirzaxanov M.M.. Issledovaniye porod i gibridov tutovogo shelkopryada, prigodnykh dlya polucheniya shelkovyx nitey selevogo naznacheniya. //“Ipakchilik sohasidagi dolzarb muammolar yechimining ilmiy asoslari” mavzuidagi konf. Toshkent. 2004. 255-264-b.
7. Muxammadrasulov Sh.X., Axunbabayev O.A. va boshqalar. Ipakchilikni va xom ipak ishlab chiqarishni rivojlantirishni ayrim yo‘llari. // ”To‘qimachlik sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ilm-fan integratsiyalashuvini o‘rni va dolzarb muammolarini yechimi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman. // Marg‘ilon, 2017. 27-28-iyul. 53-59-b.
8. Nasirillayev U.N., Umarov Sh.R., Nasirillayev B.U. Tut ipak qurtining rayonlashtirilgan sanoat duragaylari onalik zotlari tarkibida pushtdorligi yuqori mahsuslashtirilgan tizimlar yaratish. // “Ipakchilik sohasining dolzarb muammolari va ularni yangi texnologiyalarga asoslangan ilmiy yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2012. 21-24-b.